

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

2-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 2 (5) - 2025*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI .....	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK .....	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN .....	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА .....	30-37
<i>To'uchiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOYIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI .....	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKISTON TAJRIBASI .....	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA .....	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI .....	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN .....	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR .....	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOYIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) .....	79-84

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH .....	85-89
---	-------

<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i> QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSİYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI .....	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i> O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI .....	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i> CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI .....	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i> MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI .....	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i> UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA .....	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i> MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i> DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI .....	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i> MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i> DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	161-166
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i> ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVİY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI .....	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i> FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVİY YUKSALISH MUAMMOLARI .....	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i> BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI .....	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i> ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG" .....	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i> SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOYIY-FALSAFIY OMILLARI .....	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i> IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI .....	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i> ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI .....	203-206
<i>Rasulov Azizxon Mukhammadqodirovich</i> AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI .....	207-213
<i>Xasanov Boburjon Yakimovich</i> EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI .....	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i> MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT .....	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i> HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI .....	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI .....	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i> YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI .....	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i> ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) .....	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i> INSON KAMOLATI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI .....	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i> BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA .....	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i> XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI .....	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i> VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOY-FALSAFIY TALQINI .....	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i> RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI .....	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i> YOSHLARDA IJTIMOY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI .....	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i> IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI .....	282-285

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i> SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i> MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH .....	290-296
<i>Babadjanova Nazokat Davronbekovna</i> "YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI .....	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloevna</i> RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT" .....	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i> TIJORAT HUIJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA .....	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i> TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI .....	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI .....	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i> PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES .....	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i> OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI .....	332-338
<i>Babayeva Iroda</i> THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING .....	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i> USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA) .....	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i> TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI .....	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i> KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	358-363
<i>Mengboyev Azizbek Alijon o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI .....	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI .....	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i> SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI .....	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i> MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI .....	379-385
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Muxitdinova Firюза</i> КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА .....	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI .....	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloev Shavkat</i> INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH .....	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI .....	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxanovich</i> JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI .....	420-425
<i>Tuxtashev Sherzod Azimovich</i> JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI .....	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI .....	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i> BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI .....	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna</i> IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIY TAJRIBASI .....	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i> RAQAMLI ERADA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEKNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA .....	448-455
<i>Juraeva Asal</i> EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS .....	456-461
<i>Sobirov Sauidbek Maxmudovich</i> ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ .....	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i> DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI .....	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i> SUN'YI INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR .....	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI .....	492-500
<i>Yusupov O'ktambov</i> KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI .....	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i> XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI .....	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i> МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ .....	519-523
<i>Qudratillayev Hazratoli Zokirjon o'g'li</i> JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI .....	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i> SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI .....	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ .....	537-542
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI .....	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> 7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH .....	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI .....	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i> IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINFLAR O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA .....	577-582
<i>Тлеумуратова Абадан Бекбановна</i> ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ .....	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR .....	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i> OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI .....	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i> YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY MODELLARI .....	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI .....	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI .....	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i> AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI .....	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i> BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI .....	622-625
<i>Elova Sitara Axmatkulovna</i> QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI .....	626-629

**Received:** 25 January 2025  
**Accepted:** 1 February 2025  
**Published:** 10 February 2025

*Article / Original Paper*

## **FROM THE HISTORY OF EFFORTS OF THE JADIDS TO REFORM EDUCATION SYSTEM IN TURKESTAN**

**Rakhimov Bektosh Elmurodovich**

Associate professor of Samarkand State University named after Sharaf Rashidov

**Pirmamatov Ramziddin Husniddinovich**

Master's student of Samarkand State University named after Sharaf Rashidov

**Abstract.** In this article, the Jadidist movement that arose in Turkestan in the first half of the 20th century, the impact of the movement on the lives of the people of Turkestan, as well as the reform of the education system of the representatives of the Jadidist movement who consider themselves “enlightened” historical analysis of their actions. It is also discussed that the representatives of the Jadidism movement emphasized on raising the position of women in the life of society through education.

**Keywords:** Umid”, “Jadid”, “Ko‘mak”, “Usuli savtiya va tadrijiya”, “nugay school”, “Shirkat-i Buxoroyi Sharif”, “Umid birodarligi”.

## **TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN**

**Raximov Bektosh Elmurodovich**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

**Pirmamatov Ramziddin Husniddinovich**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asr birinchi yarmida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati, harakatning Turkiston o'lkasi aholisi hayotiga ta'siri, shuningdek, o'zlarini “ma'rifatparvarlar” deb hisoblagan jadidchilik harakati namoyondalarining o'lkada ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasidagi harakatlari tarixiy tahlil qilinadi. Shuningdek, jadidchilik harakati namoyondalarining jamiyat hayotida ayollarning mavqeyini ta'lim-tarbiya vositasida yuksaltirishga urg'u berilganligi muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** “Umid”, “Jadid”, “Ko‘mak”, “Usuli savtiya va tadrijiya”, “no‘g‘oy maktab”, “Shirkat-i Buxoroyi sharif”, “Umid birodarligi”.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N03>

**Kirish.** Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimiz tarixining Sobiq Ittifoq hukmronligi davri mobaynida kuchli shikast yetkazilgan jihatlarini tarixiy manbalar, xolislik va adolat yuzasidan qayta tiklash imkoniyati yuzaga keldi. Mustaqillik qo'lga kiritilgach mustaqil davlatchiligimizning qariyb 3000 yillik tarixini mafkuraviy qarashlardan holi va asosli manbalarga tayangan holda qayta tiklash zarurati birinchi galdagi vazifalardan biriga aylandi. Bu borada mamlakat Birinchi Prezidenti I.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” nomli asarida tarixchi olimlarga quyidagicha xitob qiladi: “Tarixchi olimlar, sizlar millatimizning haqqoniy tarixini yaratib bering, toki u xalqimizga ma'naviy kuch-qudrat baxsh etsin, g'ururini

uyg'otsin. Biz yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug' g'oya kerak. Bu g'oyaning zamirida xalqimizning o'zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa, o'zlikni anglash mumkin emas». [1.26]

Belgilangan qat'iy dastur asosida tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Oxirgi yillarda, ayniqsa, 2023-yil 6-mart kuni bo'lib o'tgan Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ushbu mavzuga bo'lgan qiziqish ko'lamini keskin oshishiga xizmat qildi. Unda so'zga chiqqan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bildirdi: "Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz." Ushbu konferensiya va bundan avvalroq, 2023-yil 11-12-dekabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari "mavzusida tashkil etilgan xalqaro konferensiya masalaning naqadar dolzarb ekanligining yana bir belgisi bo'ldi.

**Muhokama va natijalar.** Harakat tarixi xalqaro miqyosda hamda O'zbekistonda keng o'rganib kelinmoqda. Adib Holidning 1998-yilda nashr etilgan "The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia". ("Musulmon madaniy islohoti siyosati: Markaziy Osiyoda jadidchilik") asari ayni shu masalaga bag'ishlangan.

Bundan tashqari – tarixchi olim Edward Olsvorsning "Central Asia: 120 Years of Russian Rule". ("Markaziy Osiyo: 120-yil Rossiya hukmronligi") (2000) nomli asarida Jadidchilik harakatiga batafsil to'xtalib o'tilgan. 2013-yil Beatris Penati tomonidan nashr etilgan "Modernization and Jadidism in Russian Turkestan" (Rossiya Turkistonida modernizatsiya va jadidchilik) asarida mavzuga oid muhim tadqiqotlar yuzasidan ma'lumotlar berilgan.

Mahalliy miqyosda ham jadidchilik harakati va uning jamiyatga ta'siri chuqur tarixiy tahlil qilib kelinmoqda. Tarix fanlari doktori, professor Dilorom Alimovanning 2022-yilda nashr etilgan "Jadidchilik fenomeni" nomli risolasi bunga misol bo'ladi. Bundan tashqari M.Salohiddinovanning "Jadidchilik harakati va uning o'zbek madaniyatiga ta'siri" (1999), X.Xolbekovning "Ma'rifatparvarlik va jadidchilikning ijtimoiy roli" (2000), Sh.Vohidovning "Jadidlar va ularning ta'lim islohotlari" (2001) kabi izlanishlar Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining vujudga kelishi hamda harakat ishtirokchilarining ta'lim va tarbiya tizimini isloh qilish borasidagi harakatlari borasida fundamental ma'lumotlar beradi.

XIX asr ikkinchi yarmida bir guruh ziyolilarning musulmon o'lkalaridagi iqtisodiy qo'loqlik, ma'naviy tushkunlik va madaniy inqirozning oldini olishga qaratilgan harakatlari dastlab ma'rifatparvar Ismoil Gaspirali (1851-1914) boshchiligida Qrimda vujudga keldi va butun musulmon o'lkalari bo'ylab tarqaldi. Musulmon olamini uyg'otishga qaratilgan g'oya XIX asr ikkinchi yarmidayoq Turkiston o'lkasiga kirib keldi.

Harakat maqsadiga ko'ra turli, shuningdek, siyosiy maqsadlarni ko'zlagan bo'lib, milliy siyosiy elita sifatida Turkiston xalqlari demokratik siyosiy hokimiyatga ega bo'lishi kerakligini yoqlab chiqdilar [2.7]. Shuningdek, jadidlar qarashlariga ko'ra barcha ijobiy o'zgarishlarga mavjud ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, xurofotdan holi bo'lgan mutlaqo yangicha ta'lim tizimi orqali erishish mumkin edi. Jadidlarning o'quvchilar savodini tez fursatlarda chiqarishga mo'ljallab ishlab chiqqan "Usuli savtiya va tadrijiya" (rivojlanuvchi tovush usuli) "Usuli jadid" ya'ni "Yangi usul" sifatida keyinchalik "Jadid" so'zi butun harakat nomiga aylandi. Jadidchilik harakati ham siyosiy ham mafkuraviy qarashlar nuqtai nazaridan g'oyat murakkab davrda kechdi.

Jadidlarning davlatchilik va ma'naviyat borasidagi yangi g'oyalarini nafaqat Imperiya hukumati balki o'lkadagi eskilik tarafdorlari bo'lgan Ulamochilar toifasi vakillari ham sovuq qarshi oldi. (Jadidlarning raqiblari «jadid» so'zini «olifta», «tanno» va unda ham battarroq ma'noda ishlatishgan) [2. 40]. Shunga qaramay, harakat namoyondalari millat taraqqiyoti uchun bor-kuch g'ayratlarini ayamadilar. Yangi usul maktablari uchun darsliklar tuzish, Islomni aslidek talqin qilish, Matbuot va teatr vositasida o'lka aholining ongini yuksaltirish, turli jamg'armalar tuzib talabalarni rivojlangan davlatlarga ta'lim olish uchun yuborish kabilardan tortib siyosiy talablarni ilgari surishgacha, Turkiston muxtoriyati ko'rinishida milliy davlatga ega bo'lishgacha ulug' ishlar yakunda turli bo'hton va tuhmatlar bilan xalq dushmaniga chiqarilib, jamiyat hayotidan sidirib tashlangan jadidlar harakatlarining mahsuli edi. [3.68]

Ayollarning jamiyatdagi o'rnini va nufuzini yuksaltirish masalasi ham ularning e'tiboridan chetda qolmadi. Shunday qilib, XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev (Ubaydulla Xo'jayev), Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O'sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov (Xorazm) kabi harakat namoyondalari turar edi.

Turkistonlik ziyolilar jadidchilikni yoqlab maorifni isloh qilish, «usuli jadid» maktablarini tashkil etishga kirishdilar va shu asnodda ularni "Usul-i Kadim" maktablaridan farqli tomonlarini ko'rsatib berdilar. Birinchi bo'lib (Husaynov mablag'i hisobiga) 1893-yili Samarqandda, 1898-yili Qo'qonda Salohiddin domla tomonidan, o'sha yili To'qmoqda (o'zbeklar bu davrda bunday maktablarni «no'g'oy maktab» deb atagan), 1899-yili eski Toshkentda Mannon Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan jadid maktablari ochildi. 1900-yili Buxoroda Jo'raboy qori tomonidan yangi usuldagi maktab ochildi.

1903-yili Mahmudxo'ja Behbudiy o'z mablag'i hisobidan Jomboyda maktab ochdi. Jadid Hoji Muin va Abdulqodir Shakuriylar bu maktabda saboq berdilar. [8.36] 1907-yili To'raqo'rg'on (Namangan viloyati)da Isxoqxon to'ra Ibrat tomonidan yangi usul maktabini ochgan. 1908-yili bunday maktablarni Mirza Abdulvohid ham tashkil qildi. Muftiy domulla Ikrom bu yangi usuldagi maktablarni diniy jamoat tomonidan qabul qilinishiga erishdi. 1911-yilda jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo'lib, ularda 4106 bola o'qigan. Toshkentning o'zida 24 ta bunday maktablarda 1740 bola o'qigan. 1917-yil boshlarida o'lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida 5 mingdan ziyod o'quvchi bo'lgan. [6.78]

Xiva, Samarqand va Buxoroda zamonaviy ta'limga ega "Yangi usul" jadid maktablarining tez tarqalishida Ismoil Gaspirinskiyning ta'siri juda katta bo'ldi. Rasmiy manbalarga ko'ra 1898-1908-yillarda Rossiya imperiyasi Turkiston general-gubernatorligida 102 ta yangi usuldagi boshlang'ich maktab va ikkita yangi usuldagi o'rta maktab, Buxoro amirligida oltita, Xiva xonligida oltita "yangi usul" boshlang'ich maktablari bor edi. Buxoro ma'rifatparvar ziyolilari va tadbirkorlari "Yangi usul" maktablarini qo'llab quvvatlash maqsadida 1909-yil mart oyida "Shirkat-i Buxoroyi sharif" ("Asl Buxoro shirkati") shirkatiga asos solib, o'zini savdo shirkati sifatida ko'rsatsa-da, aslida siyosiy tashkilot edi. [5.237]

Bu shirkat “Yangi usul” jadid maktablarini yashirincha darsliklar va boshqa jihozlar bilan ta’minlab turdi. Rossiya imperiyasi hukumati jadid ma’rifatparvar va ziyolilarining “Yangi usul” maktablarida zamonaviy ta’limni kengaytirishga intilishlarida og’ir qiyinchiliklar va shafqatsiz munosabatda bo’lishdi. Turkistondan farqli o’laroq, Buxoro islohotparvarlarning nazdida, islohotni amalga oshiruvchi mantiqiy markaz davlat deb e’tirof etilgan. Buxorolik taraqqiyparvarlar amir tashabbusni o’z qo’liga olib, islohotlarni joriy etishiga umid bog’lagandilar. Usmonli imperiyasining modellari ham Turkistondan ko’ra ko’proq Buxoroga taalluqliroq ko’ringan. Islohotlarni kutish barobarida savdogarlar Buxoroda mavjud bo’lmagan zamonaviy ta’lim ilinjida talabalarni xorijga o’qishga jo’natadigan xayriya jamg’armasiga asos solgandilar. [7]

Taraqqiyparvar Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) tashabbusi bilan ochilgan “Umid” jamg’armasi hamda 1909-1923-yillarda faoliyat yuritgan va keyinchalik jamiyatda “panturkizm” va “panislomizm” kabi g’oyalarni targ’ib qilishda gumon qilib tugatilgan “Ko’mak” xayriya tashkilotlari Turkiston o’lkasida yordamga muhtoj aholiga yordam berish hamda yosh avlodni zamon ruhida tarbiyalashni maqsad qilgan. Arxiv ma’lumotlariga ko’ra, 1910-yilda “Ko’mak” uyushmasining mablag’ jamg’armasi 4000 rubl bo’lib, birinchi yilda undan 500 rubl xarajat qilingan. “Ko’mak” ochgan maktablarda o’quvchilar ehtiyojiga bir haftada 50 kopeyka, muallimlarga esa 1 rubl 50 kopeyka xarajat qilingan. Munavvarqori 1910-yil 24-noyabrda hukumatga qayta-qayta iltimosnomalar yozib, “Umid birodarligi” kitob savdosi uchun ruxsat olishga erishdi [12.9].

Amerikalik tarixchi Edward Olsworsning bildirishicha, Buxoro va Turkistonda jadid ziyolilari tomonidan ochilgan “Yangi usul” (zamonaviy) maktablari Chor Rossiyasi hukumatining o’lkadagi vakillari va musulmon qadimgilarining hukmron doira egalarini qo’rqitadi. 1910/1911-o’quv yilida Turkistondagi chor hukumati 50 dan ortiq “Yangi usul” maktablarini asossiz yopishlaridan ham mustamlakachilarning tashvishini yaqqol ko’rish mumkin. Buxoro amiri 1913/1914-o’quv yilida amirlikda ma’lum bo’lgan barcha “Yangi usul” maktablarini yoptiradi. Ushbu bosimlarga qaramay, amirlikda “Yangi usul” ta’limiga qiziqish kuchli bo’lib qoldi.[4.221]

Buxoro amirligidagi yetakchi jadidchilardan biri Usmon Xo’ja Po’latxo’jayev (1878–1968) Istanbulga ketayotib, 1909-yilda Bog’chasaroyda bo’lib, Ismoil Gaspirinskiy bilan uchrashadi. Usmon Xo’ja Po’latxo’jayev u bilan birga jadid maktablarining muhim uslubiyatini o’rgangach, Istanbulga boradi va u yerda zamonaviy turk maktabi tizimini o’rganadi. Ayni paytda u Abdurauf Fitrat (1886–1938) kabi buxorolik hamkasblari bilan 1909-yil 26-oktyabrda “Buxoro maorifini tarqatish” xayriya jamiyatini tuzdi. Tashkilotning maqsadi Turkistonning (Markaziy Osiyo) boshqa hududlari, Buxoro amirligidan talabalarni Istanbul maktablarida o’qishni davom ettirish uchun olib kelish edi. Ikki yildan so’ng Buxoroga qaytib kelgan Usmon Xo’ja darrov o’z uyida jadid maktabi ochadi va avvalo qarindoshlarining farzandlariga, keyinroq boshqa odamlar farzandlariga xizmat qila boshlaydi. Usmon Xo’ja va boshqa “Yosh buxorolik” inqilobiy guruh a’zolari amirlik tuzumini ag’darib, Buxoro demokratik respublikasini tashkil qilganlarida (1920–1923), Usmon Xo’ja 1920-yilda dastlab moliya vaziri, keyinroq 1921-yilda respublika prezidenti bo’ldi. Usmon Xo’janing yangi hukumatdagi rolini inobatga olsak, bu qisqa umr ko’rgan nosovet respublikasida birinchi qadamlardan biri zamonaviy maktablar ochish bo’lib, bu yerda ham erkak, ham qiz o’quvchilar yonma-yon o’tiradi. [9.40-43]

**Xulosa.** XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuzaga kelgan harakat-Jadidchilik mohiyati e'tibori bilan o'lka xalqlarini qoloqlik botqoqligidan ozod qilishga, erkin va demokratik jamiyat barpo etishga, bu yo'lda butun millat vakillarini birlashuvga da'vat etishga qaratilgan harakat edi. Millat oydinlari bo'lgan jadidlar ta'lim, adabiyot, matbuot va teatr hamda shunga o'xshash muhim vositalarni millat taraqqiyoti uchun xizmat qilishini yaxshi anglab yetganlar. Ayniqsa, ta'limga alohida e'tibor berilib, turli jamiyatlar va jamg'armalar tuzish orqali yosh avlodga zamonaviy ta'lim-tarbiya berishga alohida e'tibor berildi.

Ko'plab ilm-u toliblar rivojlangan davlatlarda ta'lim olishi uchun sharoit yaratib berildi. Jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan ilgari surilgan jamiyat qurilishiga oid demokratik g'oyalar birinchi galda diniy xurofotga tayanadigan jamiyat tomonidan iliq qabul qilinmadi. Millatni uyg'onishga, harakatga chorlovchi chaqiriqlar Rossiya imperiyasi hukumatini ham hushyor bo'lishga, harakat ko'lamini kuzatish, nazorat qilish va o'rni kelganda jismoniy yo'qotishgacha bo'lgan harakatlarga olib keldi. Jadidlarning davlat va jamiyat qurilishi, Islom asoslari, ta'lim tarbiya masalasi, xususan, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni borasidagi qarashlari bugungi kunda intilayotgan "Fuqarolik jamiyati" ni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent, 1998. – B. 26-28.
2. Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the early USSR. Cornell University Press. Ithaca and London. –6-40-b.
3. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press. 1998. –68-76-b.
4. Allworth E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. A Cultural History. Stanford, Calif.: Hoover Institution Press, 1990. – 200-243-b.
5. Lazzarini, Edward. 1973. Ismail Bey Gaspirinskii and Muslim Modernism in Russia, 1878–1914." Ph.D. diss., University of Washington. –237-p
6. Salohiddinova M. Jadidchilik harakati va uning o'zbek madaniyatiga ta'siri. – Toshkent. 1999. –78-85-b.
7. Mahmudova G. Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. – Toshkent: O'zMU, 2007.
8. Muin H. Adabsizlik sababi va uning chorasi. – Toshkent, 1913.
9. Rajabov Q. Turkestan youth at the beginning of the 20th century: their political activities and their integral connections with youth movements in Eastern countries Tashkent. 2008. –№1. – P. 40 – 43.
10. Ҳайитов Шодмон Аҳмадович–Мунаввар қори Абдурашидхонов фаолияти–Ўзбекистон Миллий Архиви фондларидаги маълумотларда. БухДУ 9-б.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 2 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).